

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ELEKTRON RESURSLARNING CHET TILLARINI O'QITISHDAGI ROLI

Tursunova Madinabonu Abduvali qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Roman-german filologiyasi fakulteti

Ispan tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Turamuratova Iroda Ilxombayevna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ispan tili nazariy fanlar kafedrasida dotsenti, f.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt asosida yaratilgan elektron resurslarning chet tilini o'qitish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish va samaradorlikni oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt vositalarining afzalliklari va ayrim cheklovlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, elektron resurslar, til o'qitish, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim.

Kirish. XXI asrda ko'plab o'zgarishlar nafaqat iqtisodiy, tijoriy jabhalarda, balki ta'lim tizimida ham bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an'anaviy o'qitish usullari zamonaviy raqamli yondashuvlar bilan boyitilmoqda yoki asta-sekin an'anaviy ta'lim bilan o'rin almashmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, chet tilini o'qitishda elektron resurslardan foydalanish keng ommalashdi, ya'ni so'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'limni moslashtirish imkonini beradi [1].

Asosiy qism

1. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning ta'limdagi o'rni

U o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularga o'z darajasiga mos topshiriqlarda yaratish, ularning o'zlashtirish tezligini aniqlash va individual o'quv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi [2].

Masalan, sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchining xatolarini aniqlab, unga mos mashqlarni taklif qiladi. Bu esa o'qitish jarayonini samaraliroq qiladi. Misol:

Duolingo — foydalanuvchining xatolarini kuzatib boradi va aynan qiyin bo'lgan mavzularni ko'proq takrorlashni taklif qiladi.

Khan Academy — matematika va boshqa fanlarda o'quvchining darajasiga qarab mashqlarni moslashtiradi. Natijada esa har bir o'quvchi bilan individual tarzda dars jarayonlari olib boriladi.

2. Elektron resurslar va ularning didaktik imkoniyatlari

Elektron resurslar o'quvchilarga mustaqil va interaktiv tarzda bilim olish imkonini yaratadi. Ular multimedia vositalari orqali til o'rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi [3].

Masalan:

video darslar orqali talaffuzni rivojlantirish
audio materiallar orqali tinglab tushunish
interaktiv testlar orqali bilimni mustahkamlash

O'zbekistonda ham raqamli ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda va bu borada bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda va bunga misol tariqasida sun'iy intellektning ovozni tahlil qilib, talaffuzdagi xatolarni aniqlashda yordam beradigan platformalarni keltirishimiz mumkin.

Elsa Speak — ingliz tilidagi talaffuzni baholab, qayerda xato qilayotganini ko'rsatadi.

Google Speech Recognition — nutqni matnga aylantirib, talaffuzni tekshiradi. Natijada esa o'quvchi va talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalari tezroq rivojlanadi.

3. Avtomatik tarjima va matn tahlili ya'ni sun'iy intellekt matnni tarjima qilish va tushunishda yordam beradi.

Google Translate — real vaqt rejimida tarjima qiladi.

DeepL — kontekstga mos tarjima beradi. Natijada yangi so'zlarni o'rganish va matnni tushunish osonlashadi.

4. Chatbotlar va virtual suhbatdoshlar haqida so'z borganda ChatGPT ni misol qila olamiz.

ChatGPT — savollarga javob beradi, dialoglar yaratadi.

til o'rganish chatbotlari — real suhbat muhitini yaratadi

5. Avtomatik baholash tizimlari [4].

Masalan:

nutqni aniqlash texnologiyalari talaffuzni yaxshilaydi

avtomatik tarjima vositalari matnni tushunishga yordam beradi

chatbotlar orqali real muloqot muhiti yaratiladi

O'zbekiston olimlari ham bu yo'nalishda izlanishlar olib borib, sun'iy intellektning ta'limdagi samaradorligini ta'kidlamoqda [5].

4. Afzalliklar va samaradorlik omillari

Sun'iy intellekt asosidagi resurslar quyidagi ustunliklarga ega:

individuallashtirilgan ta'lim

tezkor tahlil va baholash

o'quvchining motivatsiyasini oshirish

mustaqil o'rganish imkoniyati

Natijada ta'lim sifati oshadi va o'quvchilarning til o'zlashtirish darajasi yaxshilanadi [6].

5. Muammolar va cheklovlar

Shu bilan birga, ayrim muammolar ham mavjud:

Internetga bog'liqlik, ba'zi bir hududlar borki, inter bilan aloqa yaxshi meas yoki juda sekin ma'lumotlar uzatishga sabab bo'ladi.

O'qituvchi rolini kamaytirish xavfi ya'ni o'qituvchilik kasbini sun'iy intellekt egallab olishi mumkin. Ya'ni, sun'iy intellekt (SI) — bu inson ongiga xos bo'lgan mantiqiy fikrlash, o'rganish va qaror qabul qilish kabi funksiyalarni bajaruvchi murakkab algoritmlar yig'indisidir. Ta'lim sohasida SI shunchaki texnik yordamchi emas, balki "adaptiv o'qituvchi" vazifasini o'tamoqda.

An'anaviy tizimda o'qituvchi barcha talabalarga bir xil tezlikda bilim berishga majbur. SI esa har bir o'quvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini real vaqt rejimida

tahlil qiladi. Agar talaba "Present Perfect" mavzusida xato qilsa, tizim avtomatik ravishda unga ko'proq mashq va sodda tushuntirishlar beradi.

Ma'lumotlarga asoslangan tahlil (Learning Analytics): SI o'quvchining qachon charchashini, qaysi turdagi topshiriqlarni (video, matn yoki audio) tezroq o'zlashtirishini aniqlaydi.

Platformalar tahlili:

Duolingo: Bu platforma "Spaced Repetition" (takrorlash oralig'i) metodikasidan foydalanadi. SI algoritmi siz unutishga yaqin bo'lgan so'zni aynan o'sha vaqtda eslatadi.

Khan Academy: "Mastery Learning" modelini qo'llaydi. Talaba bir mavzuni 100% o'zlashtirmaguncha, SI uni keyingi bosqichga o'tkazmaydi, bu esa bilimdagi bo'shliqlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, til o'rganishda "vizualizatsiya" juda muhim. Elektron resurslar so'zlarni shunchaki tarjima qilmaydi, balki ularni rasm, video va kontekst orqali ko'rsatadi. Bu esa xotirada uzoq muddatli saqlanishni ta'minlaydi.

Nutqni tahlil qilish (Speech-to-Text va Phonetic analysis). Bu dastur oddiy audio yozuv emas. U sun'iy intellekt yordamida talabanning talaffuzini ona tili sohiblari (native speakers) bilan solishtiradi va hatto qaysi tovushda (masalan, /th/ yoki /r/) tilning holati noto'g'riligini vizual tarzda ko'rsatib beradi.

Google Speech Recognition: Talabaga o'z nutqini matn holida ko'rish imkonini beradi. Agar tizim talabanning aytgan gapini noto'g'ri yozsa, demak talaffuzda xatolik bor.

Shu sababli, sun'iy intellektdan foydalanishda an'anaviy metodlar bilan uyg'unlik muhim hisoblanadi [7,8].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt asosidagi elektron resurslar chet tilini o'qitishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ular ta'limni individuallashtirish, o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish va samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda ushbu texnologiyalarni keng joriy etish orqali ta'lim tizimini yanada rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, ularni an'anaviy o'qitish usullari bilan uyg'unlashtirish eng samarali natijani beradi hamda tezkor va obyektiv baholash mezonlarini ham tabiiy ravishda yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. — Pearson, 2014. - <https://gustavorubinoernesto.com/wp-content/uploads/2020/06/H-Douglas-Brown-Principles-of-Language-Learning-and-Teaching.pdf>
2. Ellis, R. The Study of Second Language Acquisition. — Oxford University Press, 2015. - https://drive.uqu.edu.sa/_/malehyani/files/Rod-Ellis-The-Study-of-Second-Language-A.pdf
3. Fayzullayev S. Sun'iy intellekt va O'zbekistonda raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va chaqiriqlar // Ilmiy yangiliklar jurnali, 2024. - <https://globalsciences.uz/ilmiyyangiliklar/article/view/2508>

4. OECD. Artificial Intelligence in Education. — OECD Publishing, 2021. - https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2021/06/oecd-digital-education-outlook-2021_0f1487d9/589b283f-en.pdf
5. Sabirova D. Raqamli ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish Digital Transformation and Artificial Intelligence, 2024.
6. Sidikova Sh. Raqamli texnologiyalar orqali til o'rgatishning asosiy prinsiplari va metodologiyasi // International Journal of Science and Technology, 2025.
7. UNESCO. Artificial Intelligence in Education. — Paris, 2019. - <https://www.unesco.org/en/digital-education/artificial-intelligence>
8. Yo'ldashev A., Muxtorov A. Boshlang'ich ta'lim sohasida sun'iy intellekt orqali ta'lim berish tamoyillari // University Research Base, 2024. - <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/399>